

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

SHAVQIY IJODIDA ALISHER NAVOIY AN’ANALARI

Saboxon Jo‘raboyeva

Namangan davlat universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
o‘qituvchisi

Shoiraxon Asqarova

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: saboxon1978@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Shavqiy Namangoniyning devonidagi muxammaslaridan biri mazmuniy tahlil qilinib, Alisher Navoiyning mashhur g‘azaliga bog‘langan tazminning farqli xususiyatlari asoslab berilgan. Devon tarkibidagi g‘azallardan biri e’tiborga olinib, ularning baytlarda ifodalagan ma’nosini muallif tomonidan izohlangan. Tasavvufiy istilohlar shoir tomonidan ko‘zda tutilgan ma’nosiga ko‘ra bir necha turlarga ajratilgan. Me’roj kechasini tasvirlashda Alisher Navoiyning “Xamsa”dostonidagi Me’roj tuni ta’rifi Shavqiy muxammasidagi tahlillar bilan solishtirilgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) na’t yo‘nalishidagi muxammasining mazmuni “Xamsa”dostonidagi baytlardagi o‘ziga xoslik maqolada tadqiq etilgan. Me’roj kechasidagi voqealar ketma-ketligi ikki ijodkorning she’riy asari misolida ko‘rib chiqilgan va xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azal janri, tahlil, ishq, oshiq, ma’shuq, Me’roj kechasi, ummat, tashbeh, na’t va ularning mazmuni.

Abstract: In this article the author analyzed the types of verbal and spiritual arts used in the ghazels of Shavqiy Namangani’s divan and explained their different characteristics. One of the ghazels in the divan was analyzed and the meaning expressed in the verses was explained by the author. The meaning of Sufism intended by poet is analyzed. Each of the verbal and spiritual arts is taken as separate example, their structure is analyzed by the author and examples are given.

Key words: Analyzes, ghazells, genre, sufism, wisdom, the image Meroj, figurative love, ummah, na’t and their meaning, eternity.

Sharqda qadimdan an’ana bo‘lgan tabiat va samovot ramziy-majoziy vositalarning noma’lum qirralarini kashf etuvchi buyuk qurol mavjud bo‘lib, u bashariyatni azaldan to bugungi kunga qadar umr mezonini sarhisob qiladi. Yaratgan tomonidan berilgan buyuk mo‘jizaviy ne’matlardan biri so‘z hisoblanadi. Inson tafakkuri o‘sib borar ekan, bu go‘zal jarayondan o‘z xohishicha foydalangan va so‘z inson ruhiyatining bir qismiga aylanib ulgurgan. Xususan, insonning latif tuyg‘ulari, ishqning mukammal ta’rifi aynan shu zakovat mevasi asrlar davomida ulug‘lanadi. Mumtoz adabiyotimizdagi nazm ishqning mohiyatan qandayligini ifodalash barobarida Alloh taolo va uning Rasuliga bo‘lgan muhabbatidan muazzamdir. Jumladan, Hazrat Alisher Navoiyning ijodida Yaratganga hamd va Payg‘ambarimizga vasf yetakchi o‘rinni egallaydi. Shoirning barcha tafakkur durdonalarida Allohnинг Rasuli ta’rifi fasohat va balog‘at bilan ifodalangan. Ya’ni payg‘ambarimiz na’tlari keltirilgan o‘rinlarda Me’roj kechasi

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

alohida talqin etilgan. Me’roj Payg‘ambarimizga berilgan eng buyuk mo‘jizalardan biridir. Bungacha hech qaysi payg‘ambarlarga bunday maqom berilmagan. Bu kechaning sehrli va sirliligi shundaki, hali hech kimning aqli va tafakkuri uning mohiyatini anglab yetmagan, makon-zamon tushunchalarini talqin etishga qalamning kuchi ojiz. Lekin hayratlanarlisi shundaki, “Xamsa” dostonining har birida Me’roj tuni turlicha tasvirlanib, bir-birini takrorlamay, nazm durdonalarini hosil qilgan. Jumladan, “Hayratul-abror”dagi voqealar rivojiga e’tibor berilsa, unda Allohning pok xabarchisi Yalavochga salom yetkazib, sodir bo‘lajak uchrashuv daragini beradi. Shundan keyin xabarchi Buroq otining tizginini tutib, Allohning Rasulini kutadi va bu hodisa shunday ta’riflanadi:

*Kim yetib ul soyiri ulviy maqom,
Ilgida bir toyiri ulviy xirom.
Po ‘yada ko ‘k sayricha orom anga,
Yerdin o ‘lub ko ‘kkacha bir gom anga.
Qosidi qudsiy chu salom aylabon
Haq soridin arzi payom aylabon[1.37].*

“Sab’ayi sayyor” dostonida esa ushbu tun ta’riflanar ekan, Hurlar va ularning zulfining halqa-halqaligi, sayyoralarning bir-biridan alohida farqli belgilari, davlat qushi haqidagi vasflar ketma-ketlikda keltiriladi. Shuningdek, Alloh va Rasulining munosabatlari oshiq va ma’shuqaning bir-biriga intilishi tarzida qalamga olingan. Lekin “Saddi Iskandariy”dostonida bu jarayon butunlay o‘zgacha ifodalanadi. Dostonda farishta xabarni yetkizgach, ular Yaratgan huzuriga otlanadilar, ammo chaqmoq chaqilishi-nurli qush paydo bo‘lganidan atrof yorishib ketishi, bundan xabarchi ham uning hamrohi ham hayajonli holatga tushgani, ular falaklar aro sayohat qilishganida sayyoralarning har biri mehmon-mezbonni o‘zgacha qarshi olganlari, barchalari Allohning Rasuliga alohida hurmat bajo keltirganlari qalamga olingan. Ular 8-falak tomon harakatlanib, u yerga yetib borishganida, Hazrat Alisher Navoiy batafsil ushbu tunning fazilati va uni vasp etishdan ko‘zda utilgan maqsadini butunligicha ifoda etadi. Shoirning she’riy tafakkuri iqtidori olamni fazoviy miqiyosda tasavvur etadi, odamzod bu kengliklar oldida qatrachalik qiymati yo‘q oddiy bir zarradir, deydi. Me’roj kechasidagi mo‘jizalar oldida u o‘zini tamomila yo‘qotish darajasiga tushishini tabiiy jarayon deb hisoblaydi. Uning sharhi har bir ijodkorning shuuridagi takrorlanmas hodisa bo‘lganligidan me’rojnomalarning bir necha turlari mavjud. Tahlillardan ko‘rinadiki, Me’roj kechasi ta’rifi shoirlar tomonidan ikki xil ko‘rinishda tadrijlanadi: ayrim shoirlar bu tunni tasvirlash orqali Ollohunga bo‘lgan cheksiz muhabbat va u zot bilan qurbat hosil qilish

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

haqidagi orzularni qalamga olsa, ba’zi ijodkorlar Rasulillohning ummatlariga bo‘lgan sadoqati, cheksiz mehr-muhabbatidan hayratga tushadilar, aynan ularni vasp etish orqali bu zotga bo‘lgan hurmatni ifodalashni o‘zlariga sharaf deb hisoblaydilar. Me’roj haqida yozish har bir shoir ijodida uchraydigan an’anaviy mavzu bo‘lgani haqida M.Muhiddinov yozadi: “Qayd etamizki, Payg‘ambar Me’roji haqida shoirlar ko‘p yozganlar, bu voqeа o‘zining xayolot va tasavvurotlariga boyligi, so‘fiyona karomati tavajjuh va oshiqlik tushunchalari bilan yaqinligi balki bunga sabab bo‘lgandir. Me’roj kechasi haqida qasida va g‘azallar ham yozilgan. Aftidan, bu an’anaviy mavzu hisoblanib, har bir shoir bunda ham o‘z kuchini sinab ko‘rgan.”[2.50] Namangan adabiy muhiti vakili bo‘lgan Mulla Shamsiddin Shavqiy Namangoniying ham “Devoni Shavqiy” qo‘lyozmasida Alisher Navoiyning mashhur bo‘lgan “Orazin yopg‘och ko‘zimdin...” deb boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan ta’bi xud muxammasi mavjud bo‘lib, mazmunan ushbu asar Me’roj kechasi ta’rifiga bag‘ishlangandir. Muxammas an’anaviy Pasullohga ta’rif, ya’ni na’t bilan boshlanadi:

*Qachon vujudi sharifing jononga bo‘ldi fosh,
Tasadduq aylar dili jon ila qilur kengash,
Sanga bo‘lmadi Jabroil, haram aro sirdosh,
Na yanglig‘ ayladi tasvir, orazing naqqosh,
Ki na’ting olg‘ali aylar ko‘ngil til ila talosh [3.286].*

Dastlabki bandda shoir bu insonning dunyoga kelishi, uning ta’rifi-tasviriga til ojiz ekanligi, qolaversa, Jabroil unga doim Allohning xabarlarini yetkazuvchi sirdosh bo‘lgani va uni vasp etmoqchi bo‘lgan til ko‘ngil bilan doimo “ta’rifni men avval aytaman” deb tortishganligi haqida fikr yuritadi.

*Bu dahr mahdi yana, sandek erni ko‘rmas kim,
Kishi bu mazallatg‘a qadam yeturmas kim,
G‘ubori maqdamingni, bu jahong‘a bermas kim,
Ko‘yungda o‘lsa supurgi mujgum, tong ermas kim,
Yo‘lungda shohi pari Jabroil erdi farrosh.*

Shoir Rasuli akramdek inson yer yuzida mavjud bo‘lmaganligini ta’kidlab, uning bu dunyoga kelishini juda katta bir hodisa deya ta’riflaydi. Uning oyog‘i tekkan zamin tuprog‘i naqadar aziz bo‘lib, har bir tirik jon ko‘ziga to‘tiyo qilajagini ta’kidlaydi. Band misralarida husni ta’lil san’atini qo‘llash orqali u Zot yurgan yo‘llarini hatto kipriklari bilan supurib qo‘yishni o‘zi uchun bir sharaf deb hisoblaydi. Nafaqat muallif, balki shohlardan tortib parilargacha, hatto Jabroil farishta ham farrosh bo‘lishni o‘ziga shon deb bilishini ta’kidlaydi. Keyingi bandda

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

esa boshqa payg‘ambarlarga nasib etmagan maqomot bo‘lgani uchun ular Rasuli Akramga havas qilganlari, bu visoldan Yalavochning qamardek go‘zal yuzlari yana-da nurlanib, o‘zlari ham xursand bo‘lib, qalblari zavq-shavqqa to‘lganlari tasvirlanadi. Bu tasvirlar Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida juda go‘zal tarzda ifoda etilgan:

*“Ki yetsun olam ahlidin nihoni,
Muhib sarvaqtig‘a mahbubi joni “
Bu so‘z mahbub eshitgach lol bo‘ldi,
Navidi vasldin behol bo‘ldi [4.15].*

Yaratgan bilan bo‘lgan uchrashuvda Rasuli Akram ummatlarining gunohini kechirishini Allohdan iltijo qilib so‘raydilar. Har bir sog‘lom fikrli, yaxshi niyatli kishi yorug‘ dunyodan shunchaki yashab o‘tmay, balki nimagadir mehr qo‘yib, intilib ezguliklar qilishi va Mahbubi Haqiqiyning visoliga vosil bo‘lishi kerak, buning uchun banda o‘ziga berilgan taqdiri azalning sinovligini anglashi va hayoti davomida halol, pok yashamog‘i kerakligi uqtirilib, namoz, ro‘za va boshqa amal qilinishi kerak bo‘lgan hodisaga ishora qiladi. Qolaversa, Islom dini ahkomlardan biri bo‘lgan namoz bilan bog‘liq jihatlar ham aynan shu Me’roj tunida amalgalashganligi kecha ta’rifida qayta-qayta ta’kidlanadi. Mulla Shams Shavqiy muxammasida esa bu lahzalar shunday ifodalananadi:

*San ul tuniki, Xudo qurbiga xirom o‘lding,
Maqomi martabang oshti, bo ehtirom o‘lding,
Haram saroyida Haq birla, ham kalom o‘lding,
Payg‘ambar ahliga oq-sodakim imom o‘lding ,
Alar kavokib edilar, san eding anda quyosh.*

Shoir shunday deydi: bu tunda sen xudo bilan birlashgach, martabang odamlar va payg‘ambarlar orasida oshib ketdi, sen shunday go‘zal martabada edingki, go‘yo ular yulduz bo‘lsalar, sen ularning orasida misli quyosh yanglig‘ nur socharding, deya ta’riflaydi va tashbeh orqali anglatilgan fikr, aynan, Alisher Navoiyning me’roj ta’rifi bilan mazmunan birlik hosil qilgan. Rasuli Akram shu darajada bu holdan hayajonda bo‘lganlarki, ular ko‘ngillaridan o‘tgan barchanining savollarga Yaratgandan go‘zal javob oladilar:

*Ochub yuzingga Xudo, qurbi manzilat bobin,
Qiyoma kelturubon marhamatni mahtobin,
Namoz o‘qib hama sha‘bda huzub shakar xubin,
Bel uzra bog‘ladi mahkam,qanoat asbobini,
Muhammad ochlig‘idin, voqif o‘lmasun deb tosh.*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Payg‘ambarimiz hayot bo‘lgan paytlarida odamlarga ibrat bo‘lgan ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirgan ekanlar, ularni halol, pokiza yashashga undab, shaxsan o‘zlar shaxsiy ibrat ko‘rsatganlar. Jumladan, aksariyat, parhez saqlab, qo‘llaridagi bor yeguliklarni yetim-yesir beva-bechoralardan ayamagan. Hatto mendan ko‘ra ochnahor muhtojlar ovqat yesin deb ochlik va og‘riq hissini sezdirmaydigan toshni bog‘lab yurganlar. Bayt misrasidagi mazmun shu hodisaga ishora qilmoqda. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi o‘rinlarda Rasuli Akram bu uchrashuvga sezgi va jismning barcha majburiyatlaridan voz kechgan holatda kiriishgan ekanlar. Inson jismning, aniqrog‘i, nafsi ammoraning qutqusidan xalos bo‘lmas ekan, u Janobi Haq bilan hech qachon qurbat hosil qilmaydi. Qo‘lini himmatga oolib, shafoat uchun ko‘zlaridan ashki nilgunni nisor etgan bu mahbub falaklar uzra Arshi A’loga borib o‘z ummatlari gunohlarini kechirishni so‘raydi va bundan shoir shu darajada hayajonlanadiki, Buroq otining bosgan izi uchun hatto o‘z boshini tasadduq etmoqchi bo‘ladi:

*Qo ‘lin duoga oolib, himmat ila bel bog‘lab,
Shafoatni talab aylarg‘a o‘zlarin chog‘lab,
Bu g‘am harorati birlan, yuraklarni dog‘lab,
Falaklar uzra chiqib, ummatim dedi yig‘lab ,
Otingni bosqon iziga tasadduq bo ‘lsin bosh.*

Alisher Navoiyning Me’roj tuni ta’rifini yakunida shunday fikrlar mavjud:

Dame sayr etardin biyik himmati,

Murodini hosil qilib ummati.

Borig‘a berib mujdayi shodlig‘,

Gunah intiqomidin ozodlig‘ :

Navoiyg‘a bo ‘lsa gunah behisob,

Anga ham, gunohig‘a ham ne hisob.

Shafe’ o ‘lg‘on o ‘lsa bu yanglig‘ rasul,

Haq ul nav’ ani qilg‘on o ‘lsa qabul [6.27].

Mulla Shams Shavqiy Namangoniy muxammasing so‘nggi bandida ham yuqoridagi fikrlarga hamohang misralar davom ettiriladi:

Bu manzilatg‘a jahon ahli, yetmas o ‘zlikdin,

Oqizdi yoshlarini, kimsa sanga ko ‘zlikdin,

O‘zini tashladi Shavqiy, yo ‘lingda o ‘zlikdin,

Ko ‘yingda o ‘ldi Navoiy, bu dog‘ muhlikidin,

Ul oyni suhbatini tobqosh ersam kosh.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Demak, bu tunning egasi bo‘lgan Zot har bir go‘zallikda, mavjudlikda tajalli etadi. Uning buyukligi nafaqat sirli Me’roj tunida, balki har bir tirik jon qalbida aks etishi kerak. Biz rasuli Akramning ummatlari sifatida u kishi bizga ishonganidek, solih amallarimiz, ezgu niyatlarimiz bilan hayot deb atalgan kitobimizni chiroyli bezamog‘imiz kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yettinchi tom. Hayrat ul-abror. – Toshkent, 1991
2. Muhiddinov Muslihiddin. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent. ma’naviyat, 2015.
3. Abdulahatov Nodirjon, Qo ‘ldoshev Sherali. Mulla Shamsiddin Shavqiy. ”Usmon Nosir media”, 2022.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yettinchi tom.Xamsa. Farhod va Shirin. –Toshkent, 1991
5. Botirxon Akram. Fasohat mulkining sohibqironi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 1991.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. O’n birinchi tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. – Toshkent, 1993.